

# Korxonalar va tashkilotlar

## **(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**

2018 yilning yanvar-sentyabr oyida viloyatda 1641 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 610 taga ko'pdir.


Shuningdek, faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 20,8 % ga kamaygan hamda ularning soni 380 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

## **2018 yil yanvar–sentyabr holatiga**

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 1309 ta (13,8 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 10778 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Navoiy shahrida (29,4 %), Karmana (17,4%), Qiziltepa (11,0 %) va Xatirchi (10,2 %) tumanlarida kuzatilmoqda.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




### Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi


	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>11015</b>	<b>100,0</b>	<b>10778</b>	<b>100,0</b>
Navoiy shahar	3270	29,7	3165	29,4
Zarafshon shahar	688	6,2	672	6,2
<i>tumanlar:</i>				
Konimex	337	3,1	325	3,0
Qiziltepa	1221	11,1	1190	11,0
Navbahor	960	8,7	946	8,8
Karmana	1899	17,2	1876	17,4
Nurota	921	8,4	909	8,4
Tomdi	190	1,7	184	1,7
Uchquduq	419	3,8	416	3,9
Xatirchi	1110	10,1	1095	10,2

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 19,7 % savdoda, 16,1 % sanoatda, 9,2 % qurilishda, 11,4 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 7,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,1 % tashish va saqlash, 1,4 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 28,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**




**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda**




2018 yil yanvar-sentyabr holatiga 1641 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 59,2 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Navoiy shahrida (377 ta), Karmana (248 ta), Nurota (181 ta), Zarafshon shahrida (175 ta) va Xatirchi tumanlarida (171 ta) tashkil etilgan. Eng kam Uchquduq (87 ta), Konimex (61 ta) hamda Tomdi (32 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi sanoatda (292 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (278 ta), savdoda (237 ta) va qurilishda (188 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (30 ta), axborot va aloqada (36 ta) hamda tashish va saqlashda (69 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**




**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda**

	2017 yil yanvar-sentyabr holatiga	2018 yil yanvar-sentyabr holatiga
<b>Jami:</b>	<b>1031</b>	<b>1641</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	241	278
Sanoat	202	292
Qurilish	78	188
Savdo	177	237
Tashish va saqlash	62	69
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	124	156
Axborot va aloqa	12	36
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	19	30
Boshqa turlari	116	355

## Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2018 yil 1 oktyabr holatiga 8759 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3393 ta, oilaviy korxonalar – 657 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 4468 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 21 tani va boshqalar 220 tani tashkil etadi.



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 oktyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 90 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 29 taga yoki 47,4 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 58 tasi qo'shma korxonalar, 32 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Navoiy shahar 34 ta (37,8 %), Karmana tumani 22 ta (24,4 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Tomdi tumani 1 ta (1,1 %), Uchquduq va Konimex tumanlari 2 ta (2,2 %), Xatirchi tumani 3 ta (3,3 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 oktyabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 54 ta (60,0 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 13 ta (14,4 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa savdoda 7 ta (7,8 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 8 ta (8,9 %), tashish va saqlashda 3 ta (3,3 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 4 ta (4,4 %) va qurilishda 1 ta (1,1 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa qurilish hamda tashish va saqlash faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da





2018 yilning **yanvar-sentaybr** oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalar soni 29 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 20 taga ko'paygan yoki 14,5 baravarga oshgan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 6 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-7 ta, Eron Islom Respublikasi-2 ta va Janubiy Koreya Respublikasi- 4 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.

### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-avgust holatiga) birlikda



Rossiya Federatsiyasi

Eron Islom Respublikasi

Afg'oniston

Xitoy Xalq Respublikasi


Корея Республикаси

Va boshqa davlatlar rezidentlari



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 13 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyatida 7 ta, savdoda 3 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 2 ta, boshqalarda 4 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**



## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 oktyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 8684 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 oktyabr holatiga qaraganda 16,6 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 2665 tasi (30,7 %) Navoiy shahriga, 1622 tasi (18,7 %) Karmana, 960 tasi (11,1 %) Qiziltepa hamda 778 tasi (9,0 %) Xatirchi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 8684 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2111 tasi (24,3 %) – savdoda, 1706 tasi (19,6 %) - sanoatda, 985 tasi (11,3 %) - qurilishda, 1183 tasi (13,6 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 812 tasi (9,4 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 425 tasi (4,9 %) - tashish va saqlashda, 142 tasi (1,6 %) - axborot va aloqa sohasida, 164 tasi (1,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 1156 tasi (13,4 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-sentyabr holatiga 1421 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 45,1 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Navoiyshahrida (327 ta), Karmana (203 ta), Nurota (176 ta) tumanlarida va Zarafshonshahrida (169 ta) tashkil etilgan. Eng kam Uchquduq (67 ta), Konimex (55 ta) hamda Tomdi (27 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (237 ta), sanoatda (292 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (277 ta) va qurilishda (188 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (30 ta), axborot va aloqada (36 ta) hamda tashish va saqlashda (69 ta) tashkil etilgan.


## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



## Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 oktyabr holatiga 674 tani tashkil etib, ulardan 657 tasi yoki 97,5 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **37,9** % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

## Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 21,0 % yoki 138 tasi sanoat, 22,4 % yoki 147 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 18,4 % yoki 121 tasi savdo, 25,6 % yoki 168 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,2 % yoki 8 tasi qurilish, 1,1 % yoki 7 tasi axborot va aloqa, 1,1 % yoki 7 tasi tashish va saqlash, 2,1 % yoki 14 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 7,1 % yoki 47 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Navoiy viloyati statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarini yuritish bo'limi

Nashr uchun mas'ul:  
S. Doniyev  
(0436)2236247

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat  
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida  
tayyorlangan